
Farg'ona shahrida "Yashil makon" umummilliy loyihasida faol ishtirok etaylik!" shiori ostida tadbir o'tkazildi

Farg'ona shahridagi barcha korxonalar va tashkilotlarda ayni kunlarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish aktsiyasi ko'tarinkilik va soha xodimlarining faolligida o'tmoqda. Har bir bo'sh turgan yer maydonlar hamda gulxonalarga turli manzarali va mevali daraxtlar ekilmoqda.

Bugun olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasida faol ishtirok etaylik!" shiori ostida tadbir tashkillandi. Unda ta'lim va tibbiyot muassasalari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi.

Tadbir avvalida shahar hokimi o'rinbosari Yusufjon Yusupov, sektor rahbarlari hamda mutaxassislar so'zga chiqishib, ko'chatlarni ekish, parvarishlash bo'yicha hamda o'tkazilayotgan aktsiyalarda barchani faol bo'lishga chaqirdilar.

Shundan so'ng, shahrimizning markaziy ko'chalaridani bo'sh turgan yer maydonlariga manzarali daraxt va gul ko'chatlari ekildi. Har bir maydondagi ko'chatlarni parvarishlash, yashil maydonlarni kengaytirish maqsadida mas'ullarga yer maydonlari taqsimot qilindi.

Tadbir so'ngida shahrimizdagi korxonalar va tashkilotlarga 4 ming tupga yaqin mevali va manzarali daraxtlar hamda 10 ming tupga yaqin mavsumiy gullar tarqatildi. Mahallalarda, har bir ko'cha va xonadonlar, korxonalar va tashkilotlarda ham ko'chatlar ekish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-29 22:36:58